

6 sinf Matematika 2-BSB topshiriqlari va mezonlari

Bob	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Ajratilgan ball	To'g'ri javob	Baholash mezonlari
II. Oddiy kasrlar	To'g'ri kasrni natural songa bo'lish; Natural sonni to'g'ri kasrga bo'lish; To'g'ri kasrni to'g'ri kasrga bo'lish	To'g'ri kasrni natural songa bo'lish, natural sonni to'g'ri kasrga bo'lish, to'g'ri kasrni to'g'ri kasrga bo'lish amallarini bajara oladi	Hisoblang: 1) $\frac{5}{6} \div 20$; 2) $18 \div \frac{8}{9}$; 3) $\frac{7}{10} \div \frac{2}{5}$	3 ball	1) $\frac{1}{24}$; 2) $\frac{162}{8} = \frac{81}{4}$; 3) $\frac{7}{4}$	Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball dan jami 3 ball .
	To'g'ri kasrni natural bo'lish;	Masalalar yechishda to'g'ri kasrni natural songa bo'lish qoidasini qo'llay oladi	Savatdagi olmalarning $\frac{7}{12}$ qismi – qizil olma, qolgani yashil olma. Shohrux barcha yashil olmalarni 3 ta do'stiga teng qilib bo'lib berdi. Shohruxning har bir do'sti savatdagi olmalarning qancha qismini olgan?	2 ball	$\frac{5}{36}$	1) Yashil olmalar savatdagi olmalarning qanday qismi ($\frac{5}{12}$) ni tashkil qilishini to'g'ri topsa, 1 ball ; 2) Shohruxning har bir do'sti savatdagi mevalarning qanday qismini olganini to'g'ri topsa, 2 ball ;
	Natural sonni to'g'ri kasrga bo'lish;	Masalalar yechishda natural sonni to'g'ri kasrga bo'lish qoidasini qo'llay oladi	Qopda 8 kg guruch bor. Sarvar qopdagi guruchni $\frac{3}{8}$ kg li bir nechta bir xil idishlarga to'ldirib soldi. 1) Sarvar ko'pi bilan nechta idishni to'ldira olgan? 2) Idishlarga solinganidan keyin qopda qancha guruch qoldi?	3 ball	1) 21 ta; 2) $\frac{1}{8}$ kg.	1) Sarvar ko'pi bilan nechta idishni to'ldirganini to'g'ri topsa, 1 ball ; 2) Sarvar idishlarni to'ldirish uchun jami necha kg guruch solganini to'g'ri topsa, 2 ball ; 3) Qopda qancha guruch qolganini to'g'ri topsa, 3 ball .

	Matnli masalalar	<p>To‘rt amalni o‘z ichiga olgan ko‘p bosqichli matnli masalalarni yecha oladi</p>	<p>Farida opa pishirgan tortlarning:</p> <ul style="list-style-type: none"> • $\frac{1}{3}$ qismi – ananasli; • $\frac{1}{4}$ qismi – qulupnayli; • Qolganlari shokoladli. <p>Shokoladli tortlar ananasli to‘rtlardan bittaga ko‘p bo‘lsa, Farida opa pishirgan tortlarning jami sonini toping.</p>	3 ball	12 ta	<p>1) Shokoladli tortlar jami tortlarning qanday qismini tashkil qilishini to‘g‘ri topsa, 1 ball;</p> <p>2) Shokoladli va ananasli tortlar farqi necha qismga tengligini to‘g‘ri topsa, 2 ball;</p> <p>3) Jami tortlar sonini to‘g‘ri topsa, 3 ball.</p>
		<p>To‘rt amalni o‘z ichiga olgan ko‘p bosqichli mulohazaga oid matnli masalalarni yecha oladi</p>	<p>Elbek lotereyada ma‘lum miqdorda pul yutib oldi. U pulining yarmini onasiga berdi. Qolganining to‘rtdan birini o‘zi uchun olib qo‘ydi. Undan qolgan pulni 5 nafar jiyaniga teng taqsimlab berdi. Agar har bir jiyani 15000 so‘mdan olgan bo‘lsa, Elbek necha so‘m yutib olganini aniqlang.</p>	4 ball	200000 so‘m	<p>1) Jiyanlariga pulning qanday qismini taqsimlab berganini to‘g‘ri topsa, 2 ball;</p> <p>2) Jami jiyanlariga necha so‘mni taqsimlab berganini to‘g‘ri topsa, 1 ball;</p> <p>3) Jiyanlariga jami pulning qancha qismini va jami necha so‘mni taqsimlab berganini to‘g‘ri topsa, 3 ball;</p> <p>4) Elbek necha so‘m yutib olganligini to‘g‘ri topsa, 4 ball.</p>
Jami				15 ball		

Izoh: Ushbu materiallar o‘qituvchiga BSB topshiriqlarining qaysi bob va mavzudan ekanligi, shuningdek, qaysi ko‘nikmani rivojlantirishga xizmat qilayotganligi haqidagi ma‘lumotni beradi.

O‘qituvchi yuqoridagi ma‘lumotlar asosida BSB topshiriqlarning turli variantlarini shakllantirishi mumkin.